

**INDIGOFERA O‘SIMLIGI VA BEGONA O‘TLARGA  
KURASH CHORALARI**

*Qadamboyeva Shoxida Baxrombek qizi*

*Komilova Sarobibi Fozilbek qizi\**

*Quvandiqova Darmonjon\**

*Yoqubov Gayrat Quvandiqovich\*\**

*\*Urganch davlat universiteti talabalari*

*\*\* Urganch davlat universiteti, qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi, dotsent*

O‘zbekiston Respublikamizda 12 ming gektardan ortiq maydonlarga ekilgan takroriy ekinlardan 110 ming tonnadan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, respublikada iqlimning keskin o‘zgarishi, qish faslining quruq sovuq kelishi, mart oyining birinchi yarmida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lishi va ikkinchi o‘n kunligida havoning keskin sovib ketishi natijasida qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘sishi, rivojlanishi bir oz kechikishiga sabab bo‘ladi. Bahor oylarining seryog‘in, havo haroratining past bo‘lishi g‘allazorlarda zamburug‘li kasalliklar, zararkunanda hasharotlar va begona o‘tlar keng tarqalishi ko‘p yillik tajribalarda kuzatilgan. Hozirgi kunda bahorning seryog‘in kelishi, mart oyining uchinchi o‘n kunligida havo harorati iliq kelishi tuplash va naychalash fazasida rivojlanayotgan g‘alla maydonlarining ozuqaga bo‘lgan talabini yanada oshiradi hamda eng ko‘p biomassa shu davrda hosil bo‘lishini hisobga olib bahorgi ikkinchi oziqlantirishni 1-5-aprel muddatida yakunlash talab etiladi.

Bu, o‘z navbatida joriy yilning kuzi va kelgusi yilning qish va bahor oylarida viloyatning barcha bozorlarida narx-navoning arzonligi va barqarorligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ammo keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi yerlari orasida haddan ziyod begona o‘tlar ko‘payib ketganligi sababli turli xil kasallik, hashorat, zararkunandalar bilan zararlanmoqda. Buning asosiy sabablari qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladigan maydonlarning dala chetlari, yo‘l yoqalari, ariq bo‘ylari katta-kichik zovurlar, latok atroflari, ekin ekilmaydigan yerlar, sug‘orish shaxobchalari, sifatsiz tayyorlanadigan sharbatlar, chiritilmasdan beriladigan mahalliy go‘ng, begona o‘t urug‘lari yerga sochilishi, ekinni orasiga ishlov berilmasligi evazigadir. Bunday holatda dalalarda agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda zudlik bilan kimyoviy qarshi kurash choralari olib borilmasa 2-3 yildan so‘ng dalalar ahvoli ekin ekishga noloyiq holatga kelib qolishi mumkin.

Shuning uchun ularga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ularga qarshi kurashish uchun esa avvalo ularning turi, miqdori, uchrash darajasi, biologiyasi va tasnifini bilishning ahamiyati kattadir.

Biz tajribalarimizda Xorazm viloyatining o‘tloqi allyuvial tuproqlari shaoritida

indigofera ekilgan dalalar uchragan begona o‘tlarni va ularga qarshi kurash choralari olib borildi. Indigofera maydonlarida Yovvoyi suliv- Avena fatua L. balandligi 120 sm, gacha boradi, poyasi to‘g‘ri, boshog‘i dumaloq, urug‘idan unib chiqishi mart oylarida yuz beradi va hamma sug‘oriladigan ekinzorlarda uchraydi.

Qo‘noq o‘t - *Setaria glauca* bir yillik g‘allasimon begona o‘t bo‘lib, havo harorati 14 °S oshgandan so‘ng unib chiqadi. Bo‘yi 40-50 sm. gacha o‘sadi. Urug‘ining unib chiqish qobiliyati 10-15 yilgacha boradi. It qo‘noq asosan urug‘lari orqali tuproqlarni ifloslantiradi, 1 kv.m. maydonchada o‘rtacha 3-5 dona uchraydi. Havo harorati 15 °C dan oshgandan so‘ng unib chiqadi. Ildiz qismi baquvvat, bir tupi 5000 donagacha urug‘ beradi, urug‘i pishgandan so‘ng tezda to‘kiladi.

Kurmak- *Echinochloa crus-galli* (L.) bir yillik ikki pallalik g‘allasimon begona o‘t, asosan sug‘oriladigan, ba‘zan lalmikor yerlarda ham uchraydi. Bo‘yi 100 sm gacha o‘sadi, iyul-sentyabr oylarida gullaydi, urug‘laydi. Kurmak faqat urug‘lari orqali ko‘payadi. Urug‘lari 8-10 yilgacha unuvchanlik qobiliyatini yo‘qotmaydi, 1 kv.m. maydonchada o‘rtacha 6000 donagacha urug‘ beradi.

Yovvoyi arpa- *Hordeum Murinum* L bir yillik g‘allasimon begona o‘t. Navdasining balandligi 80-90 sm gacha boradi, urug‘ining pishgan davrida 1-tup yovvoyi arpa urug‘lari tuproqni va donni ifloslantiradi, asosan g‘alla ekinlari orasida ko‘p uchraydi .

Tulki quyruq -*Alopecurus myosuroides* Hids. bir yillik yoki qishlovchi g‘allasimon begona o‘t. O‘sish muddati kuzdan bahorgacha davom etadi, novdasi tik o‘sadi, balandligi 60 sm gacha boradi. Bir tup tulki quyruq o‘rtacha 200 donagacha urug‘ beradi. Pishishi g‘allaning yig‘ishtirib olish vaqtida yoki undan keyin urug‘lari pishadi. G‘alla o‘rib olishda donni va tuproqni ifloslantiradi. Salomalaykum-*Cyperus rotundus* L.ko‘p yillik begona o‘t bo‘lib, asosan sug‘oriladigan yerlarda uchraydi. Gullashi va meva berishi yozning ikkinchi yarmidan boshlanadi, urug‘lari hamda tukanlari orqali ko‘payadi. Begona o‘t, g‘o‘za, sabzavot va boshqa qishloq xo‘jalik ekinzorlarida uchraydi. O‘rtacha 1 kv.m maydonchada 3-5 dona uchraydi. Ajriq – *Cynodon dactylon* asosan sug‘oriladigan yerlarda uchraydi. Bo‘yi 20-30 sm gacha boradi. Iyun, iyul oylarida gullaydi va avgust, sentyabr oylarida meva beradi. Ajriq tuproqning urug‘i va ildiz bachkilarini bilan ifloslantiradi. O‘rtacha 1 m<sup>2</sup> maydonchada 3-4 dona uchraydi. G‘umay -*Sorghum halepense* L.ko‘p yillik g‘allasimon begona o‘t. Asosan sug‘oriladigan va lalmikor yerlarda uchraydi, ildiz poyali begona o‘t, mart-aprel oylarida unib chiqadi hamda ildiz va ildiz bachkilarini orqali ko‘payadi. Uning ko‘p yillik, yo‘g‘on ildiz poyasi tuproq ostida 10-40 sm chuqurlikda joylashadi. Bo‘yi 15-20 sm gacha bo‘ladi. Iyundan boshlab to kuzgacha gullaydi, mevasi iyulda pisha boshlaydi. G‘umay kechki sovuq tushgunga qadar o‘saveradi. Bir tup g‘umay 2000 donagacha urug‘ berishi mumkin. O‘rtacha 1 kv.m maydonchada 3-4 dona uchraydi.

**Qarshi kurashish choralari:** gerbitsidlar havo xarorati 15-200S bo‘lganida, gektariga 100-300 litr me‘yorda ishchi eritma sarflagan holda qo‘llanilishi tavsiya

etiladi.

Stomp 2 l/ga (etalon) qo'llanganda 15 kundan keyin o'rtacha Sho'rada 90.78%, Olabuta 87.09% Dala semizo'ti 91.22%, Yulduz o't 90.62% Fors veronikasi 88.89% Uchbargli bo'ritaroq 88.06% Tugmachagul 86.54% o'rtacha 0,6 yoki 89.03%, 30 kundan keyin o'rtacha 89.82%, 60 kundan so'ng 89,29% umumiy o'rtacha hisoblanganda 90.01% samara berdi. Stomp preparati Dala semizo'ti, Yulduz o't, Sho'ra xamda Uchbargli bo'ritaroqda yaxshi ta'sir qildi.

Sim-Sim,50% em.k. 1,5 l/ga qo'llanganda 30 kundan keyin Stomp preparati Sho'rada 90.90%, Olabuta 92.30% Dala semizo'ti 88.89%, Yulduz o't 92.95% Fors veronikasi 93.82% Uchbargli bo'ritaroq 91.54% Tugmachagul 90.38% o'rtacha 0,58 yoki 90.64%, 30 kundan keyin o'rtacha 91.54%, 60 kundan so'ng 92.03% umumiy o'rtacha hisoblanganda 91.40% samara berdi. Sim-Sim preparati Sho'rada, Olabutada, Dala semizo'tida, xamda olabutada yaxshi ta'sir qilganligi malum bo'ldi. Sii-Sim,50% em.k. 3,0l/ga qo'llanganda 60 kundan keyin o'rtacha o'rtacha Sho'rada 93.42%, Olabuta 91.93% Dala semizo'ti 92.98%, Yulduz o't 92.18% Fors veronikasi 93.65% Uchbargli bo'ritaroq 91.04% Tugmachagul 91.04% o'rtacha 0,5 yoki 87,82%, 30 kundan keyin o'rtacha 93.82%, 60 kundan so'ng 93.69% umumiy o'rtacha hisoblanganda 93.24% samara berdi. Sim-Sim preparati Sho'rada, Fors veronikasi, Olabutada, Dala semizo'tida, Yulduz o't xamda Yulduz o't yaxshi ta'sir qilganligi ko'rindi. Indigofera o'simligi ikki pallali bo'lganligi uchun orasida uchraydigan bir pallali ya'ni g'allasimon begona o'tlarni yo'qotish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Indigofera orasida uchragan g'allasimon begona o'tlarga qarshi kurashish uchun eng avvalo ularni turlari, miqdori va uchrash darajasini aniqlab, tarqalishini o'rganish zarur. Urug'lari soni va ularni chidamlilik darajasini bilishning ahamiyati katta. Begona o'tlarga qarshi kurashishning bir necha usuli mavjud bo'lib, ularning turiga qarab kurash choralari ishlab chiqiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari – Toshkent, 2007. 147 b.
2. Jong-Bokim, Spandena Rajendra Kopalli., Sushruta Koppula. Tropical Journal of Pharmaceutica Research **15**, (4) 773-779 (2016)
3. A. Ergashev, G.Yakubov el. at, International Journal of Development Research. **5**, 12 p. 6213-6218 (2015)
4. Jenny Balfour-Paul *Indigo Plants and Making of their De*, (Sublime indigo, 1987) 43
5. G. Yakubov Effect of stimulants to photosynthetic and symbiotic activity of indigofera tinctoria L. Plant. E3S Web of Conferences **486**, 01035 (2024)
6. S.M. Mambetullaeva et.al, Web of scientist: International scientific research journal **4**, (2) 847-851 (2023)